

MAHORATLI PEDAGOGNING JIHATLARI

Kenjayeva Nargiza Elmurodovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

4-sonli IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7026776>

Bugungi xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unga harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

“Amir Temur bobomizning “Kuch-adolatdadir” degan mashhur ta’birini bugungi kunga nisbatan qo’llab aytadigan bo’lsak, men unga qo’shimcha qilib “Kuch-bilim va tafakkurda” degan bo’lardim”- degan edi Islom Karimov.

Darhaqiqat, kuchli bilim va tafakkurli avlodni esa yuksak pedagogik ta’lim texnikasiga ega mahoratli ustozlar tarbiyalaydi, bilim beradi.

Shu o’rinda “Pedagogik texnika nima?”- degan savol tug’ilishi mumkin...

Pedagogik texnika – o’qituvchining nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan umumiy pedagogic bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlarga:

*o’qituvchi savodli va ifodali so’zlay olishi;

*o’z fikr mulohazasini va bilimini tushunarli bayon etishi;

*o’zining shaxsiy xususiyatlariga mos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo’lishi;

*aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag’batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum orqali o’quvchiga ta’sir eta olish texnikasi kiradi.

Har qanday mahoratli pedagog yuqoridagi jihatlarga ega bo’lsagina o’quvchi qalbidan yo’l topa oladi va o’z faniga qiziqtiradi.(143so’)